



**ISSN**  
**2181-1784**  
**SJIF: 5.423**

# ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,  
natural and social sciences*

**[www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)**

*Exact sciences*

*Natural sciences*

*Engineering sciences*

*Pedagogical sciences*

*Social and Human sciences*

*Philological sciences*

*Philosophy sciences*

*Economic sciences*

**No9  
2021**



**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,  
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL**

**ISSN 2181-1784**

**VOLUME 1, ISSUE 9**

**Impact Factor: 5.423**

**October**

**2021**

---

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL  
AND SOCIAL SCIENCES  
SCIENTIFIC JOURNAL  
VOLUME 1, ISSUE 9 -2021**

---

**EDITOR-IN-CHIEF**

**Dr. KADIROV MUKHAMMADJON**

**Candidate of philosophical sciences Associate professor of the department of  
“Oriental philosophy and culture” of Tashkent State University of Oriental  
Studies**

**EDITORIAL BOARD**

**Dr. PhD. N.B. KHODJAEVA**

Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philological Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Dr. Z.A. NUROVA**

Candidate of Biological sciences  
Associate professor of Termez branch  
of the Tashkent Medical Academy

**Dr. S.F. AMIROV**

Doctor of technical sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Transport

**Dr. A.H. KARSHIEV**

Doctor of Philosophy (PhD) in  
technical sciences  
Associate professor of Tashkent State  
Technical University

**PhD. A.A. SHAYUSUPOVA**

Candidate of Pedagogical Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**PhD. M.KH. EGAMOV**

Candidate of Pedagogical Sciences  
Associate professor of Karshi  
Engineering Economics Institute

**Prof. G.M. RUZMATOVA**

Doctor of Philosophical Sciences  
Professor National University named  
after Mirzo Ulugbek.

**Prof. O. J. NISHANOVA**

Doctor of Philosophical Sciences  
Professor of National University named  
after Mirzo Ulugbek.

**Prof. MUHIBOVA ULFATKHON**

Doctor of Philological Sciences  
Professor of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Prof. S.A. KHASHIMOVA**

Doctor of Philosophy (DSc)  
in Philological Sciences  
Professor of Tashkent State University of  
Oriental Studies

**Dr. S. S. NURMATOV**

Candidate of Philological Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Prof. T. M. TOGAEV**

Doctor of Philological Sciences  
Associate professor of Uzbek Language  
and Literature named after Alisher Navoi



**Dr. PhD. A.E. RUZIEV**

Doctor of Philosophy (PhD) in  
Psychological Sciences  
Deputy Dean of the Faculty of Energy  
of Karshi Institute of Engineering and  
Economics

**Prof. YALCHIN KAYALI**

Ankara University, Faculty of  
Languages and History-Geography,  
Department of Eastern Languages and  
Literatures, Sub-Department of  
Indology, Faculty Member.

**Dr. A.KH. KHUDOYBERDIEV**

Candidate of Historical Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Dr. U.A. ABDULLAEV**

Candidate of Historical Sciences  
Associate professor of Tashkent State  
University of Oriental Studies

**Mr. CHRISTIAN BARTOLF**

Doctor of Philosophy (PhD)  
In Political Sciences

**Prof. N.B. ABDULLAEVA**

Doctor of Philosophical Sciences  
Professor of the department of  
Philosophy and Fundamentals of  
Spirituality of National University named  
after Mirzo Ulugbek.

**PhD. E.N. CHERNIKOVA**

Candidate of Pedagogical Sciences  
Associate professor of Uzbek State  
University of Physical Culture and  
Sports.

**Prof. PhD. SAO FEY**

Professor of Hangzhou Normal  
University, Linguist.

**PhD. CHJAN KONG**

School of Humanities and  
Communication, Zhejiang University of  
Finance and Economics.

**Dr. N.S. HAMRAEVA**

Doctor of Economics, Associate  
Professor of Karshi Institute of  
Engineering and Economics

|                                                                                                                                                                                                                    |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Садиев Ш. Ф.</b> // <i>Обследование пациентов с алопецией.....</i>                                                                                                                                              | <b>832</b> |
| <b>Нурова З.А., Бердиев К.М., Абдурахмонов К.Д., Баходиров С.Б., Уразова З.У.</b> // <i>Значение и перспективы «Жидкой биопсии» в ранней диагностики онкологических заболеваний.....</i>                           | <b>841</b> |
| <b>Абжалов А.М.</b> // <i>Проблемы обеспечения безопасности дорожного движения.....</i>                                                                                                                            | <b>849</b> |
| <b>Djabbarov O.Dj.</b> // <i>Tekislikda uchburchak yuzasi haqida ayrim mulohazalar.....</i>                                                                                                                        | <b>857</b> |
| <b>Xodjayev A.A.</b> // <i>Xorijiy valyuta bozorida to'lov tizimi jarayonlarini tezkorligini ta'minlash orqali uning samaradorligiga erishish mexanizmlari.....</i>                                                | <b>863</b> |
| <b>Kushimov B.A., Mamadaliyev X.J.</b> // <i>Qishloq xo'jaligi hamda meva – sabzavot mahsulotlari quritish uchun energiya tejankor qurilma va texnologiya.....</i>                                                 | <b>869</b> |
| <b>Abrorkhon A.A.</b> // <i>Ethical views of Abdurahmon Sayokh Tashkandi (In the classification of works Meyor ul-Ahloq) .....</i>                                                                                 | <b>880</b> |
| <b>Berdiyeva H.B.</b> // <i>Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....</i>                                                                           | <b>886</b> |
| <b>Ne'matov B.S.</b> // <i>Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....</i>                                                                              | <b>899</b> |
| <b>Mamadaliyeva N.Z., Qurbonaliyev S.Sh.</b> // <i>Pedagogika oliy o'quv yurtlarining bakalavr bosqichida “Bio – Savar – Laplas” qonunini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....</i> | <b>908</b> |
| <b>Yusupova Sh.</b> // <i>Boshlang'ich sinf matematika darslarida algebraik materiallarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim darajalari tahlili.....</i>                                     | <b>914</b> |
| <b>Allanazarov O.D.</b> // <i>O'zbekiston hududida chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sobiq sovet tuzumi davrlarida voyaga yetmaganlar jinoyatlarini tergov qilishning huquqiy asoslari.....</i>                  | <b>921</b> |
| <b>Давлатов Дж.К.</b> // <i>Исламизация Чагатайского улуса как важный фактор укрепления государственности в кочевой степи.....</i>                                                                                 | <b>931</b> |
| <b>Umarov I.O.</b> // <i>Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash: an'analari, innovatsiyalari, istiqbollari.....</i>                                                  | <b>939</b> |
| <b>Bozorova G.Z.</b> // <i>Ortiqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida o'rganilishi.....</i>                                                                                                                    | <b>945</b> |
| <b>Karimova B.X.</b> // <i>Mehribonlik uylari boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilarida milliy g'ururni hadislar asosida shakllantirishning nazariy va amaliy ahamiyati.....</i>                                     | <b>952</b> |
| <b>Uralov D.</b> // <i>Talaba-yoshlar ongida ma'naviy bo'shliqni to'ldirishda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ahamiyati.....</i>                                                                         | <b>962</b> |

## **ORTIQCHALIK TAMOYILINING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O`RGANILISHI**

**Bozorova Gulmira Zayniddinovna,**  
Buxoro davlat universiteti o`qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqola ortiqchalik tamoyilining tilshunoslikda o`rganilish tarixini yoritishga bag`ishlangan bo`lib, pleonazm hodisasi haqida antik davr tilshunoslari tomonidan keltirilgan turlicha qarashlar bayoni bilan boshlangan.. Shuningdek, tilshunos olimlarning pleonazmlar ustida atroflicha olib borgan izlanishlari, ba`zi o`rinlarda esa ularning bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan fikrlari ham qayd etib o`tilgan.*

**Kalit so`zlar:** ortiqchalik tamoyili; pleonazm; tautologiya; pleonastik birliklar; affiksial pleonazmlar; fonetik ortiqchalik; lingvopragmatika.

### **АННОТАЦИЯ**

*Статья начинается с описания истории изучения принципа избыточности в лингвистике, основанного на повторении, и начинается с изложения различных взглядов древних лингвистов на феномен плеоназма. Также были отмечены обширные исследования плеоназма лингвистами, а также их противоречивые взгляды в некоторых местах.*

**Ключевые слова:** принцип избыточности; плеоназм; тавтология; плеонастические единицы; аффиксальные плеоназмы; фонетическая избыточность; лингвопрагматика.

### **ABSTRACT**

*The article is devoted to the history of the study of the principle of redundancy in linguistics, which is based on repetition, and begins with a statement of the different views of ancient linguists on the phenomenon of pleonasm. Linguists' extensive research on pleonasm, as well as their conflicting views in some places, have also been noted.*

**Keywords:** principle of redundancy, pleonasm; tautology; pleonastic units; affixal pleonasms; phonetic redundancy; linguopragmatics.

### **KIRISH**

Til ijtimoiy hodisa sifatida shakllanar ekan, so`zlashuv jarayonida ixchamlikka intiladi, imkon qadar qisqa ifodaga tayanadi. Shuningdek, iqtisod tamoyili bilan bir qatorda, nutqda turli ortiqchaliklar ham kuzatilishi tabiiy.

Ortiqchalik tamoyiliga asoslangan hodisalardan biri pleonazmdir. **PLEONAZM** (yun. pleonasmos — ortiqchalik) — bir xil yoki sinonimik ifoda

vositalarining (til birliklarining) semantik jihatdan takror holda qo'llanishi. Pleonazm tejamlilik prinsipiga zid hodisadir. Biroq shunga qaramay, u uslubiy vazifa bajarishga asoslanadi. Pleonastik qo'llanish uchun shakliy takror asosiy mezon bo'la olmaydi, balki mavjud ma'noning qayta takrorlanishi asosdir[9].

Tildagi ortiqchalik tamoyilining o'rganilish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Mazkur hodisa haqidagi dastlabki qarashlarni antik davr olimlari ijodida uchratish mumkin. Faylasuflar tomonidan ortiqchalik, xususan, pleonazm hodisasi ritorika va stilistika doirasida o'rganilgan.

Antik davr mualliflari pleonazmning kommunikativ qiymatini turlicha baholashgan. Jumladan, pleonazmni Kvintilian, Donat, Diomed stilistik kamchilik sifatida nutqda so'zlarning ortiqcha qo'llanishi, deb qarashgan bo'lsa, ularga qarama-qarshi tarzda Dionis Galikarnasskiy nutqni to'ldiruvchi omil sifatida e'tirof etadi. Bir qarashda ortiqchadek tuyulsa-da, ayni damda, nutqni aniqlik, ishonch, pafos hamda ritm bilan boyitadi, deya ta'kidlab o'tadi [8,24].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ortiqchalik tamoyili jahon olimlari tomonidan ham atroflicha tadqiq etilgan bo'lib, G.Paul, Ch.Xokket, A.Martine, O.Yespersion, M.Krongauz, K.Shennon kabi tadqiqotchilar turlicha fikrlarini bayon etib o'tganlar. Jumladan, G.Paul har qanday ortiqchalik til uchun begona ekanligini[7] ta'kidlagan bo'lsa, amerikalik tilshunos Ch.Xokket unga qarama-qarshi tarzda ortiqchalikni keraksiz deb izohlab bo'lmasligini, nutq uslublari uchun muhim omil bo'lib xizmat qilishini [12]qayd etib o'tgan. A.Martine esa aloqa nazariyasi shartlaridan foydalanib, ortiqchalikning asosiy vazifasini ishlab chiqdi[5]. O.Yespersion gapda qo'llangan ortiqchalik kumulyativ baho ifodalayotgani sababli ham uni noo'rin qo'llangan deb hisoblab bo'lmasligini, shuningdek, ortiqchalik bevosita uslubiyatga daxldorligini ta'kidlaydi[11].

Ushbu hodisa rus tilshunoslari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Rus tilshunosligiga dastlab "pleonazm" atamasi XVIII asrda notiqlar tomonidan ekspressivlikni ta'minlovchi shakl sifatida qabul qilingan. Mavzuni o'rganish jarayoni shuni ko'rsatdiki, rus tilshunoslari tomonidan tautologiya hamda pleonazm hodisasi boshqalarga nisbatan ancha batafsil tadqiq etilgan.

Faqat XIX asrga kelibgina ortiqchalik tamoyilini o'rganishning metodologik asoslari paydo bo'la boshladi. Bu borada N.Grech (1843), F.Mikloshich (1895), A.Meye (1938), F.Buslayev (1941), G.Paul (1960), A.Potebnya (1968) kabi tilshunos olimlar o'zlarining ilmiy-nazariy qarashlarini fanga ma'lum qildilar. Ushbu olimlarning ortiqchalik tamoyilini yoritishdagi dastlabki ilmiy qarashlari keyingi davr

tilshunoslariga mazkur hodisaning alohida jihatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish uchun asos bo'ldi desak, yanglishmaymiz.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

XX asrda pleonazm hodisasi tilshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq qilindi:

- mantiq bilan aloqada: Y.D.Apresyan (1989), L.Vitgenshteyn... (1994);
- semantik jihatdan: A.M.Bushuy (1973), M.V.Nikitin (1983), L.K.Raxmankulova (1985), A.Weirzbicka (1987);
- stilistik jihatdan: O.S.Axmanova (1966), A.P.Yevgenyeva (1963), I.B.Golub (2002) va b. [4; 4].

O'zbek tilshunosligida pleonazm haqidagi fikrlarni, birmuncha kengroq tarzda R.Qo'ng'urovning ishlarida uchratish mumkin. Lisoniy ortiqchalikni N.Mahkamov, B.Sheronov monografik planda tadqiq etishgan. Bu hodisalarning oppozitiv xususiyatlarini N.Mahkamov, O.Tojiyev, R.Yusupova qiyosan tahlil etganlar. Shuningdek, F.Ibragimovanning tadqiqot ishida ham pleonazm va ortiqchalik tamoyili xususida ilmiy qarashlar mavjud.

XXI asrda ham o'tgan asr olimlarining an'analari davom ettirilmoqda. Ortiqchalik tamoyilini o'zida aks ettiruvchi pleonazm va tautologiya hodisalarining o'xshash va farqli tomonlari bilan bir qatorda, ularning har biri tilshunoslikning turli sohalari tomonidan alohida tadqiq manbasi sifatida o'rganilmoqda.

So'nggi yillarda ortiqchalik semantik jihatdan Y.L.Vilinbaxova (2014); A.V.Petrov, L.A.Petrova (2015); sintaktik jihatdan Z.B.Barkinxoyeva (2012); N.A.Gerasimenko (2012); L.L.Iomdin (2013); stilistik va diskursiv jihatdan Y.B.Bogatova (2014); T.G.Zuyeva (2010), Y.N.Lavrentyeva (2012) kabi tilshunoslarning maqola va ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

Rus tilshunosligida tautologiya va pleonazm hodisalari birmuncha batafsil tadqiq etilgan. Rus olimlaridan L.N.Buruxin pleonazmlarni o'rganar ekan, pleonastik birliklarning individual leksikonda qo'llanishi bilan bog'liq tajribalar o'tkazadi, ushbu hodisaning psixolingvistik xususiyatlarini yoritib berishga harakat qiladi. "Плеоназмы в индивидуальном лексиконе (экспериментальное исследование)" [2] deb nomlanuvchi maqolasida yozilishicha, 30 ta talaba bilan o'tkazilgan tajribada ularning shaxsiy nutqida uchraydigan pleonastik birliklarni qay darajada bilishlarini o'rganib chiqilgan. Shuningdek, sinov jarayonida talabalar tomonidan so'zlarning asl mohiyatini bilmasliklari natijasida birikmalardagi so'zlar o'rniga boshqa birliklarni qo'yib, tamoman boshqa so'z birliklarini hosil qilishgani ham kuzatilgan.



Shunga o'xshash yana bir tajriba namunasi M.N.Yesakovaning "Плеоназм как явление речевой избыточности" nomli maqolasida[10] uchraydi. Olima ushbu maqolada pleonazmlarni yuzaga kelishi uchun asos bo'luvchi omillarni sanab o'tadi. Rus tilida pleonastik birliklarning qay darajada qo'llanishini aniqlash uchun ko'pchilikka ma'lum internet qidiruv tarmog'idan foydalanilgan. O'quv qo'llanmalarida uchraydigan 23 ta pleonastik birlik foydalanuvchilarga havola qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aksariyat ishtirokchilarning pleonastik birliklardan foydalanishlari ma'lum bo'lgan. Masalan, 7 mln foydalanuvchidan 6 mln 714 tasi *refleks* so'zi o'rniga *avtomatik refleks* - pleonastik birikmasini qo'llagani aniqlangan.

So'nggi yillarda rus tilshunosligida tavgologiya va pleonazm hodisalarini birmuncha mufassal tadqiq etgan rus olimasi T.A.Kovalevadir. Tadqiqotchi ishni ikki hodisaning rus tilida o'rganilish tarixi, ularning integral va differensial belgilarini yoritish bilan boshlagan. Nomzodlik dissertatsiyasining ikkinchi va uchinchi boblarida esa tavgologiya va pleonazmni polisistem aspektda tadqiq qiladi. Har ikki tushunchaning fonetik, sintaktik, semantik, stilistik hamda pragmatik xususiyatlarini alohida-alohida ochib beradi. Shuni ta'kidlash joizki, T.A.Kovaleva o'zining monografiya va nomzodlik dissertatsiyasida ortiqchalik tamoyilini sinchkovlik bilan tahlil qilishga intilgan. Xususan, tavgologiya va pleonazm hodisalarining har birini tizimli tadqiq qilish jarayonida ularning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini rus tilidagi misollar orqali ochib bergan.

Shuningdek, ingliz, nemis, rus va boshqa tillarda tavgologiya va pleonazmning vazifaviy xususiyatlari yangi metodlardan foydalangan holda quyidagi ishlarda o'z aksini topgan:

- kognitiv lingvistikaga mos ravishda: M.X.Iyevleva(2000), T.S.Ostapenko (2010);
- pragmatik jihatdan: O.A.Zayts (2001), T.A.Kovaleva (2010), L.A.Polyanskaya (2011);
- psixolingvistik tomondan: A.N.Buruxin (2013).

Yuqoridagilardan tashqari, zamonaviy tilshunoslikda rus, ingliz, nemis, fransuz, chex va boshqa turli tillarda tavgologik va pleonastik konstruksiyalarning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan ishlar talaygina. Jumladan, D.V.Andrianova (2013), N.S.Jukova (2006), R.A.Mishkina (1990), I.N.Filippova (2014), N.A.Belova (2015), M.N. Yesakova (2012).

Takroriylik va ortiqchalik teoriyasi romano-german va slavyan tillarida ham o'rganilgan bo'lib, R.A.Nexlina (1971), Galperin (1981), L.K.Raxmankulova (1984),

L.A.Polyanskaya (2011)lar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, chet el tilshunoslari Sh.Balli (2001), L.Bauer(2006), J.Dubois (1970), A.Graur (1962), S.Hoidas, M.Galani (2012), G.Mikov (2003)larning[4,6] ishlari tavnologiya va pleonazmning tilshunoslikdagi o`rnini belgilash uchun kelgusida qilinajak tadqiqotlar uchun manba vazifasini o`taydi.

Yuqorida ortiqchalik tamoyiliga asoslangan ikki yondosh hodisa – pleonazm va tavnologiyaning o`xshash hamda o`ziga xos jihatlari chet el tilshunoslarining ilmiy qarashlari asosida chog`ishtirma xarakterda ochib berishga harakat qilinganligining guvohi bo`ldik. Milliy tishunoslikdagi pleonazm hodisasining o`rganilishiga to`xtalishdan oldin, turkiyshunoslikda izlanish olib borgan olimlarni qayd etib o`tishni joiz bildik.

Turkiyshunoslikda birinchi bo`lib G.F.Blagovala o`z maqolasida turkiy tillardagi affiksall pleonazmni qiyosiy-tarixiy va areal-lingvistik tahlil qildi. G.D.Adjibekoval, R.Qo`ng`urov, M.Turobovalarning ishlari ham pleonazm hodisasining ma`lum tomonlarini yoritishda alohida o`rin tutadi. Ayrim ishlarda fonetik ortiqchalik, ko`pgina adabiyotlarda va ba`zi tadqiqotlarda affiksall ortiqchalikning amal qilishi xususida fikr yuritilgan.

Ba`zi turkiyshunoslar tilshunoslikning u yoki bu sohasini o`rganishga bag`ishlagan ishlari (N.K.Dmitriyev, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, E.V.Sevortyan, N.A.Baskakov, A.G`G`ulomov, S.K.Kenesbayev, M.I.Odilov, K.A.Nazarov, B.Urinboyev, A.Bolganbayev, A.Najimov, K.Sharipoval va boshqalar) pleonastik qo`llanish haqida ham yo`l- yo`lakay fikr yuritishadi[6, 6].

O`zbek tilshunosligida maxsus pleonazm hodisasiga e`tibor qaratilgan ish N.Mahkamovning “Adabiy norma va pleonazm” nomli tadqiqotidir. Olim o`zbek tilida uchraydigan affiksall pleonazmlarni ikki turga bo`lib o`rganadi: distant va kontakt holatda joylashib pleonastik qo`llanishiga ko`ra pleonazmlar. Shuningdek, leksik-affiksall pleonazmlarni ham misollar bilan tahlil etadi. O`zbekcha va o`zlashma so`zlarning pleonastik qo`llanishi ham olim nazaridan chetda qolmagan().

Keyingi yillarda ham bir qator olimlarimizning tadqiqotlarida ortiqchalik tamoyili o`rganilgan. Jumladan, R.N.Yusubovanning “Hozirgi o`zbek poeziyasi lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyili” nomli nomzodlik dissertatsiyada ham tavnologiya va pleonazm hodisalari to`g`risida ilmiy qarashlar bayon etilgan[9].

Shuningdek, tejamlorlik va ortiqchalik tamoyili yoritilgan yana bir ilmiy ish sifatida F.E.Ibragimovanning “Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis” nomli dissertatsiyani ko`rsatish mumkin. [3]

## **XULOSA**

Pleonazm o'zbek tilshunosligi uchun yangi hodisa emas. Olimlarimiz tomonidan ushbu hodisa atroflicha tadqiq etilgan va hanuzgacha izlanishlar davom etmoqda. Pleonastik birliklarning har bir turi jihatdan izlanish olib borgan tadqiqotchilarni qayd etishdan oldin pleonazm turlarini keltirib o'tsak.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, jahon tilshunosligida ortiqchalik tamoyili, xususan, pleonazm hodisasi birmuncha kengroq qamrovda o'rganilgan. Biroq o'zbek tilshunosligida pleonazm hodisasining qo'llanish o'rinlari, sotsial xoslanish masalalari, uslubiy qo'llanishdagi farqli jihatlar, lingvopragmatik xususiyatlari tilshunosligimizda hozirga qadar monografik jihatdan o'rganilmagan. Yuqorida qayd etilgan manbalar esa kelgusida o'zbek tilshunos olimlari tomonidan mazkur hodisaning ilmiy tadqiq etilishi uchun asos bo'ladi desak, yanglishmaymiz.

## **REFERENCES**

1. Благова Г.Ф. Тюркский аффиксальный плеоназм в сравнительно-историческом и ареально-лингвистическом освещении // Вопросы языкознания, 1968. -№6.
2. Бурухин Л.Н. Плеоназмы в индивидуальном лексиконе (экспериментальное исследование) // Вестник Ленинградского государственного университета имени А.С. Пушкина. Научный журнал. 2012. № 3. Том 1. Филология.
3. Ибрагимова Ф. Ортиқчалик тамойили ва антиэллипсис / Адабий таълим ва ёшлар муаммоси. Республика миқёсида ўтказилган илмий-назарий анжуман материаллари асосидаги мақолалар тўплами. -Тошкент, 2010.
4. Ковалева Т.А. Тавтология и плеоназм в отечественном языкознании: интегральный и дифференциальный аспекты // Вестник МГОУ. Серия: Русская филология. 2016 / № 2
5. Мартине А. Принцип экономии в фонетических изменениях (Проблемы диахронической фонологии). – Москва: ИИЛ, 1960. – С.262;
6. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. -Тошкент: Фан, 1988.
7. Пауль Г. Принципы истории языка. – Москва: Изд-во иностр. лит., 1960. – 372 с.
8. Турובהва М. Узбек шеваларида синтактик плеоназмлар// УТА. 1982. 5-сон.
9. Yusubova R.N. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida). F.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.-2011.

- 
10. Есакова М.Н. Плеоназм как явление речевой избыточности. / Вестник Московского университета. Сер. 22. Теория перевода. 2012. №2
  11. Есперсон О. Философии грамматики. – Москва: Изд-во иностр. лит., 1958. – С.313.
  12. Қаранг: Звегинцев В.А. Теоретическая и прикладная лингвистика. – Москва: Просвещение, 1968. – С.250.